

OILA TARBIYASI ASOSLARI

*Andijon davlat pedagogika instituti
aniq va tabiiy fanlar fakulteti
biologiya yo'nalishi 203-gurux talabasi*

Numonova Zaynabxon

To'lanboyeva Marjona

Annotatsiya: *Ushbu maqola oilaning jamiyatdagi asosiy bo'g'in sifatidagi ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatini ochib beradi. Unda oila va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikning mamlakat taraqqiyoti uchun muhimligi ta'kidlanadi. O'zbekiston sharoitida oilaning milliy mafkurani shakllantirishdagi g'oyaviy o'rni yoritilgan. Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish omillari (ota-ona obro'si, urf-odatlar) va maktab bilan hamkorlikning ahamiyati ko'rsatilgan. Xulosa: oilaviy tarbiya — shaxs kamolotining kalitidir.*

Kalit so'zlar: *Oila, Jamiyat, Oila tarbiyasi, Mafkura, Shaxs kamoloti, Maktab bilan hamkorlik.*

Аннотация: *Статья анализирует социально-воспитательное значение семьи как основной ячейки общества. Подчеркивается неразрывная связь между семьей и обществом, важная для развития страны. Освещается роль семьи в Узбекистане как идеологической основы для формирования национальной идеологии. Рассматриваются факторы успеха семейного воспитания (авторитет родителей, традиции) и важность сотрудничества со школой. Вывод: семейное воспитание — ключ к становлению личности.*

Ключевые слова: *Семья, Общество, Семейное воспитание, Идеология, Развитие личности, Сотрудничество со школой.*

Annotation: *This article explores the socio-educational importance of the family as the primary unit of society. It highlights the indissoluble link between*

family and society, crucial for national development. The family's role in Uzbekistan as the ideological foundation for shaping national ideology is discussed. Factors for successful family upbringing (parental authority, traditions) and the significance of cooperation with the school are outlined. Conclusion: family upbringing is the key to personality formation.

Keywords: *Family, Society, Family Upbringing, Ideology, Personality Formation, Cooperation with School.*

Har qanday jamiyat oilalardan tarkib topadi. Oila jamiyatning kichik, biroq, eng asosiy bo'g'ini sanaladi. Zero, jamiyatning mavjudligi unda yashovchi kishilarni o'z ichiga olgan oilalarning borligi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra oila va jamiyat o'rtasidagi aloqaning mustahkamligi, bir-biri nitaqozo etishi nihoyatda muhim. Bu muhimlik jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanishi uchun nafaqat ta'lim muassasalarida, balki oilada ham bola (farzand) lar tarbiyasini to'g'ri, samarali tashkil etishni taqozo qilishida aks etadi. Kishilik taraqqiyotining turli bosqichlarida ham oila tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib kelingan. To'g'ri, ba'zan bu e'tibor bir qadar sustlashgan. Biroq, shuni alohida aytib o'tish lozim, hech bir jamiyat va ijtimoiy tuzumda oilaning shaxs tarbiyasidagi ahamiyati, o'rni va roli butunlay inkor etilmagan. O'zbekiston hududida esa qadim-qadimdan oilaning ijtimoiy-tarbiyaviy kuchga egaligi alohida e'tirof etilib, yuksak baholangan. O'zbekiston mustaqilligi yillarida esa bu bahoning qiymati yanada oshdi. Jumladan, —Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar|| risolasida oilaning jamiyatda tutgan ijtimoiy mavqei, uning jamiyat taraqqiyotiga qo'shadigan hissasi, shaxs tarbiyasida g'oyaviy asos bo'luvchi mafkuraviy qarashlarni shakllantirishdagi roliga alohida urg'u beriladi:

Oila – mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila – jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Oiladagi sog'lom muhit – sog'lom mafkurani shakllantirish manbaidir||. Shu bilan

birga ushbu risolada —jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligini, o‘zaro hurmat va ahillikni ta‘minlash¹ respublika ma‘naviy hayotida ustuvor o‘rin tutadigan milliy mafkurani shakllantirish, uning maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo‘lishi aytib o‘tiladi. Darhaqiqat, oila va jamiyat o‘zaro yaxlit ekan, o‘z-o‘zidan ijtimoiy taraqqiyotning negizi uning muhim bo‘g‘inida tashkil etiladigan tarbiya mazmuni, g‘oya va tamoyillari asosida qo‘yilishi shubhasiz. Shu sababli O‘zbekiston tarixiy taraqqiyotida yangi davr bo‘lgan mavjud sharoitda oilada bolalarni tarbiyalash masalasiga ham yangicha yondashuvni qaror toptirish taqozo etilmoqda.

Oila tarbiyasi — oilada ota-ona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta’sirchan kuch — oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro‘sining yuqori bo‘lishi, bolalarga talab qo‘yishda oila kattalari o‘rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e’tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo‘yish, oilada qat’iy rejim va kun tartibini o‘rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlari-nl hisobga olish, boladagi o‘zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo‘llabquvvatlash va h.k.

Oila qanchalik tartibli, uning a’zolari o‘rtasidagi munosabat samimiy bo‘lsa, Oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi. Oila tarbiyasida ota-ona obro‘si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirliги, hozirjavoblighi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo‘ylikdan iborat bo‘lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko‘p qismi oilada o‘tadi. Shu boisdan mavjud an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta’sirida bola astasekin ka-mol topib boradi. An’ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir. Oila tarbiyasida yutuklarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egalighi, Oila tarbiyasi bo‘yicha tajribalar alma-shishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg‘in jalb qilishga ham bog‘liqdir. Har bir ota-ona

Oila tarbiyasida o‘zlarining burch va mas’uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Normal oilaviy muhit, bolani kitob o‘qishga, mehnat qilishga o‘z vaqtida jalb

etish ham Oila tarbiyasining muvaffaqiyati garovidir. Oilada ota yoki onaning yoʻqligi yoki ulardan birining ketib qolishi Oila tarbiyasiga kata zarar yetkazadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy taʼsir kuchi yoʻqoladi, Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qat-tiq jarohatlanadi, u tajang, serjahl, qoʻpol, dagʻal boʻlib qoladi, kattalarga ishonmay qoʻyadi, oʻqishi pasayib ketadi. Oila tarbiyasida otaning obroʻsi katta ahamiyatga ega. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bogʻlamasdan muvaffaqiyatga erishib boʻlmaydi. Shuning uchun Oila tarbiyasida maktab va ota-onalar oʻrtasidagi taʼlimtarbiyaga oid birgalikdagi ishlari katta ahamiyatga ega. Otaonalarning oʻqituvchilar bilan boʻlgan uchrashuvlarida aytilgan fikrlar, ayniqsa qimmatlidir. Chunki ular oʻz farzandlari toʻgʻrisida koʻproq narsalarni bilib oladilar. Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-ona oila bilan maktab oʻrtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabni tamomlagunga qadar otaona maktab bilan yaqin aloqa oʻrnatishi, farzandining darslarini oʻzlashtirishi, xulq-atvoridan xabardor boʻlib turishi, tarbiya masalalarida oʻqituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan soʻng nima bilan mashgʻulligi haqida oʻqituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim. Uz navbatida oʻqituvchi va sinf rahbari ham bolaning oʻqishi, odobi, xulqi, maktabda oʻzini tuta bilishi haqidagi maʼlumotlarni ota-onaga yetkazishi, zarurat tugʻilganda paydo boʻlgan muammolarni birgalikda hal qilishi zarur. Farzandi maktabga borgan otaona maktab jamoasining aʼzosi boʻlib qolishi kerak. Oʻqituvchi va sinf rahbari ham oʻz oʻquvchisining oilasi bilan mustahkam hamkorlikni yoʻlga qoʻymogʻi lozim. Oila tarbiyasida ota-onalarning mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan hamkorliklari ham muhim. Oila tarbiyasi farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatli boʻlishi mumkin. Oila tarbiyasida har bir oila oʻziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy tarbiyani oqilona tashkillashtirish, oilada bola tarbiyasiga ijodiy yondashish, bolalarda ijobiy sifatlarni shakllantirishga erishish ularning shaxs sifatida toʻlaqonli shakllanishlarida muhim ahamiyatga ega. Oila jamiyatning asosiy boʻgʻimi boʻlibgina qolmay, hayotimizning ilk ustunidir. Inson

bor ekan jamiyat ham kelajak ham davom etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.X.Xodjayeov. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. -T."Sano standart" nashriyoti. 2017.
2. J.Hasanboyev, X.A.To'raqulov, I.Sh.Alqarov, N.O'Usmanov. PEDAGOGIKA (pedagogika nazariyasi va tarixi). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent — «Noshir» — 2011.
3. Avloniy A. Odob bo'stoni va axloq gulistoni. – Toshkent, o'qituvchi, 1994.
Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1993, 27-28-bet.
4. Sh. Kurbonov, H. Saidov, R. Ahliddinov. Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1999. – 173-174-betlar.